

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

MA'MUN UNIVERSITETI



**MA'MUNIY XORAZMSHOHLAR DAVRIDA
ILM-FAN TARAQQIYOTI VA UNING JAHON
TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI**

mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2024-yil 15 – 16-aprel

1-qism

TOSHKENT – 2024

Tahririyat hay'ati: A.O.Nurjonov, **X.O.Matkarov**, E.M.Xudoynazarov, S.M.Matkarmova, D.A.Urazbayeva, U.M.Abdalov, A.B.Sherov, Z.Yu.Odilov, S.O.Cho'ponov, M.B.Qalandarova

Ma'sul muharrir: DSc. S.M.Matkarmova

Taqrizchilar: i.f.d., prof. B.Ruzmetov, DSc. D.Urazbayeva, DSc. Q.Masharipov

Jahon tamadduniga munosib xissa qo'shgan mamlakatimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazi, ilm-ma'rifat o'chog'i bo'lib, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shib kelgan. Zaminimiz ikki buyuk Uyg'onish, ya'ni renessansga beshik bo'lgani shunday deyishimizga asos bo'la oladi. Davlatchligimiz tarixida Ma'muniy Xorazmshohlar davlati juda qisqa muddat xukmronlik qilgan bo'lishiga qaramasdan o'zidan keyin katta iz qoldirdi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Tarixdan ayonki, vatanimizda taraqqiyotning yangi davri boshlanishi aynan Ma'mun asos solgan va Sharqning mashhur allomalarini bir dargohga jamlab, ularga zarur shart-sharoit, imkoniyat, imtiyozlar yaratib bergan 1004-yildagi "Dorul hikma", "Majlisi ulamo", ya'ni akademiyadan tarqalgan ilm nurlaridan boshlanadi. Ma'munning hukmdor sifatidagi, davlat yuritishdagi huquq va siyosatdagi tafakkuri, ilm-fan namoyondalarini ezgu g'oyalar tevaragida birlashtirdi. Bu ezgu g'oya esa ko'p o'tmay jamiyatda o'z natijasini ko'rsatdi va matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, huquq, geodeziya singari shu davrga xos barcha fanlar rivojlanib, Birinchi renessansga asos bo'ldi.

Ushbu konferensiya to'plami mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, talaba va magistrantlar uchun foydali bo'ladi deb umid qilamiz.

Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zлari ma'suldirlar.

Konferensiya o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-mart 76-sonli buyrug'i va Xorazm viloyati Ma'naviyat va ma'rifat Kengashining 2024-yil 3-fevraldagi 51-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Ushbu konferensiyasi materiallari Ma'mun universitetining 2024-yil 29-mart 8-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilindi.

erda tarjima ishlari olib borildi, Arab, hind, yunon mutafakkirlarining asarlari o‘rganildi[14].

Muxtasar qilib aytganda Ma’mun akademiyasi o‘z davrining yuksak darajadagi rivojlangan ilmiy maktabi bo‘lib, ilm-fanning ko‘plab masalalari bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borilib juda koplab olamshumul yangiliklar ilmiy yangilik sifatia iste’molga kiritilgan va bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining farmoni, 11.11.1997. PF-1880-son. Xorazm Ma’mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qaror, 09.11.2004 532-son Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida.
3. Sa’dullaev A., Satliqov A. Xorazm Ma’mun akademiyasining tarixiy ildizlari. – Nukus: Qoraqolpog‘iston, 2005.
4. R.Shamsiddinov, Sh. Karimov, ”Vatan tarixi” 1-kitob.-Toshkent-2010,”Sharq”.
5. Matniyozov M. Xorazm tarixi. –Urganch: Xorazm, 2005.
6. Mahmudov M. Xorazmshoh Ma’mun akademiyasi. – Toshkent: TMI, 2005.
7. Azimboy Sadullaev. “Xorazm Ma’mun Akademiyasi” Xiva 2000 y.
8. Абдухоликов Ф., Ртвеладзе Э.(2022). Абу Али ибн Сино асарлари кўлёзмалари Туркия кутубхоналарида. Китоб-альбом. –Тошкент.: "Silk Road Media".
9. Халилов А. ЮНЕСКО бош директори Бухорода. //Бухоронома. 2000 йил 16 сентябр. №75.-64.
10. www. Xorazmiy.uz.

MA’MUN AKADEMIYASINING O’RTA ASR ILM-FAN TARAQQIYTIDAGI O’RNI

*Vohidov Shodmon Huseynovich Tojikiston Respublikasi Panjikent pedagogika instituti ilmiy ishlari va innovatsiyalar prorektori, T.F.D., professor
pamir555@gmail.com*

Ergashev Jahongir Yunus o‘gli t.f.f.d. (PhD), dotsent Buxoro davlat universiteti dotsenti, Y.G‘ulomov nomidagi Samarkand arxeologiya instituti Buxoro filiali ilmiy xodimi.

Jahon ilm-fanining rivojlanishida muhim o‘rin egallagan “Dorul hikma va ma’rifa” da tadqiqot olib borgan olimlarning faoliyatiga Evropalik, Rossiyalik, olimlar, akademiklar E.Zaxau, S.P.Tolstoy, I.Yu.Krachkovskiy, A.Yu. Yakubovskiy, R. G. Bulgakov, o‘zbek olimlaridan Y. Gulomov, I. Mo‘minov, M. Xayrullayev, A.Ahmedov, B.Abdulhalimovlar yuksak baho bergenlar[1]. Ularning tadqiqotlari ushbu o‘quv markazining faoliyatini chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda olib borilgan tadqiqotlar natijalari uning o‘sha davr fanlar akademiyasi ekanligini isbotladi. Ushbu ilmiy markaz hozirgi kunda Xorazm Ma’mun akademiyasi deb nomланади. "Dor-ul hikma" yoki "ulamo majlisi" deb nomlangan ushbu muassasa turli davrlarda shon-sharaf va shon-shuhratga ega bo‘lishni

maqsad qilgan olimlar, yozuvchilar va shoirlar uchun joy bo‘lgan. Boshqacha qilib aytganda, u "noldan paydo bo‘lmagan", ammo mustahkam asosga ega edi. Ma'mun akademiyasi ilm-fanning uzoq o‘tmishdagi ildizlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u sharqning uyg‘onish davri madaniy rivojlanishining natijasi bo‘ldi. Qadimgi Xorazmda astronomiya, matematika va boshqa fanlarga qiziqish ayniqsa erta paydo bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning ta’kidlashicha, Xorazm insoniyat sivilizatsiyasining beshigi bo‘lib, O‘zbekiston davlatining eng dastlabki poydevori hisoblanadi va muqaddas hududlardan biri hisoblanadi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” aynan shu go‘zal joylarda yaratilgan. Qadimgi sharqning “Avesto” dastlabki ensiklopedik asari ming yillik diniy-falsafiy ilmiy-ma'rifiy qarashlarga ega bo‘lgan ajdodlarimizning gumanistik g‘oyalarini birlashtirgan. Ming yil oldin ushbu muqaddas zaminda sun‘iy sug‘orishga asoslangan yuqori dehqonchilik madaniyati, noyob sug‘orish inshootlari, go‘zal shaharlar va mohir me'morchilik binolari yaratilgan bo‘lib, ularning xarobalari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Shuningdek, xorazmliklarning oromiy grafikasi asosida yozgan maktublari ularning savodli va bilimli odamlar ekanliklarini ko‘rsatadi[2].

O‘tgan asrning o‘rtalarida Tuproqqal'a, Xazorasp, Ayoz Kal'a, Qo‘yqirilganqal'ada akademik S. P. Tolstov, Ya. A. G‘ulyamov, I. Yu. Yakubovskiy va boshqa arxeolog olimlar qadimiylar yozuv namunalarini topdilar. Zargarlik buyumlari, nafis va did bilan ishlangan haykallar, saroy devorlariga chizilgan rasmlar, turli xil rangli tasvirlar, birinchi astronomik asboblar, qadimiylar rasadxonalar va boshqalar. Bularning barchasi Xorazmda qadimgi davrda madaniy rivojlanish yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi. Berunining so‘zlariga ko‘ra, qadimgi xorazmliklar o‘zlarining taqvim tizimiga ega edilar. Xorazmda qishloq xo‘jaligi ishlarini mavsumiy rejlashtirish matematika va astronomiya rivojida muhim rol o‘ynadi. Qishloq xo‘jaligining asosi bo‘lgan yirik kanallar va sug‘orish inshootlarini qurish, go‘zal shahar, saroylar va boshqa me'moriy binolarni qurish ham topografiya, geometriya va matematikani rivojlantirishni talab qiladi[3].

Noyob zargarlik buyumlari va rang-barang namunalar shuni ko‘rsatadiki, bu joylarda kimyo va mineralogiya bo‘yicha yuqori darajadagi bilimlar mavjud edi. Xorazmliklarning xorijiy mamlakatlar bilan savdo va madaniy munosabatlari geografiya, kartografiya va etnografiyaning dastlabki rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Shunday qilib, Xorazmda uzoq vaqtidan beri aniq va gumanitar fanlarni yaratish va rivojlantirish uchun moddiy va ilmiy asos mavjud edi. Xorazm Ma'mun akademiyasining shakllanishi va rivojlanishida yuqoridagi omillarga qo‘sishimcha ravishda qadimgi yunon olimlarining asarlari, shuningdek Bag‘doddagi "bayt-ul hikma" da faol faoliyat yuritgan Muhammad Al-Xorazmiy, Ahmad Al-Farg‘oniy, Ahmad Al-Marvaziy Abbas Al-javhari kabi olimlarning ilmiy ixtirolari muhim rol o‘ynadi. Ma'mun akademiyasi olimlari ularning ilmiy xulosalarini, ixtiolarini o‘rganib, boyitib, rivojlantirdilar[4].

Tarixdan ma'lumki, Xorazmning Janubiy qismini Afrigidlar sulolasiga hukmdori Abu Abdulloh Muhammad, shimoliy qismini esa Ma'mun ibn Muhammad (995-997) boshqargan. Ushbu hukmdorlar o‘rtasidagi ixtilofda Ma'mun ibn Muhammad g‘alaba qozonadi va Xorazmni birlashtirib Xorazmshoh

unvonini oladi va Gurganj shahrini (Urganch) poytaxt deb e'lon qilindi. Uning vorislari Ali ibn Ma'mun (997-1009), Ma'mun II ibn Ma'mun (1009-1017) hukumdotligi davrida Xorazmda qadimiy davlat tizimi, madaniy an'analar tiklandi, shahar hayoti, savdo va hunarmandchilik rivojlana boshladi. Arab tarixchisi Istarining asarlarida X asr boshida Xorazmda 9 dan 13 tagacha shahar bo'lganligi, yarim asrdan keyin esa shaharlar soni uch baravar ko'payib, 40 taga yetganligi ko'rsatilgan. Gurganj, Xiva, Qiyot, Xazorasp, Ardashushsimon (Vayangan), Kardaranxos (Kalajik) kabi shaharlar Sharqning madaniy va iqtisodiy markazlariga aylandi. Xorazmliklar hatto Ispaniya bilan ham savdo va madaniy aloqalar o'rnatgan. Ayniqsa, poytaxt Gurgajda arxitektura rivojlandi, ko'plab go'zal saroylar, karvonsaroylar, masjidlar va madrasalar, jamoat binolari, bozorlar qurildi[5].

"Tarifi shahri Xorazm" qo'lyozmasi muallifi o'sha paytda Gurganjda 170 ta katta va kichik savdo markazlari, 500 ga yaqin masjid, 700 ta madrasa va 1000 ta hammom bo'lganligini ta'kidlaydi. Ibn Batuta (XIII asr) yuqorida fikrlarni rivojlantirib xorazmliklarning iste'dodi va qobiliyatini yuqori baholaydi. Xorazmliklar: "dunyoning boshqa hech bir joyida chet elliklarni, mehmonlarni ulardek mehmondo'stlik, saxovatli qabul qiladigan odamlar bilan uchrashishga muyassar bo'limganman"[6]. Yuqorida ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhit Xorazmdagi Ma'mun akademiyasi faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Ma'rifatli shoh Ali ibn Ma'mun Gurganjda madaniy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib saroyda kutubxona qurban va uni sharqning turli shaharlaridan olib kelgingan asarlar bilan boyitgan. Saroy yaqinidagi madrasada yoshlarga Islom va dunyoviy fanlar o'rgatilgan. Bu davr ilm-fanning gullab-yashnagan davriga aylandi. Ali ibn Ma'mun Jurjoniyadan Abu Rayhon Beruniyni chaqirib uni o'zining bosh maslahatchisi etib tayinladi va unga boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlар o'rnatishni buyurdi. 1004 yilda Ali ibn Ma'munning buyrug'i bilan sharqning yirik o'quv-ma'rifiy muassasasi bo'lgan akademiya tashkil etildi. Beruniy ushbu muassasaning raisi bo'ldi[7]. Shuningdek, u sharqning taniqli olimlarini akademiyaga taklif qildi. Xorazmshoh Ma'mun II hukmronligi davrida "dor-ul hikma" yanada mashhur bo'ldi. Ushbu muassasada xorazmliklardan tashqari Buxoro, Samarqand, Jand, Marv, Nishopur, Balx, Eron, Hindiston, Misr, Suriyadan kelgan yuzdan ortiq olimlar, huquqshunoslar, yozuvchilar, dinshunoslar faoliyat yuritib ilm-fanning turli sohalarida tadqiqot ishlarini olib borgan.

Olimlar astronomiya, matematika, fizika, kimyo, mineralogiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, tilshunoslik, mantiq, adabiyot, Islom huquqshunosligi kabi tabiiy va jahon fanlari bilan shug'ullanishgan. Ular Arab, fors, hind, lotin va turk tillarini mukammal bilishgan. Ular Platon, Aristotel, Ptolemey, Evklid, Pifagor va Galen kabi yunon olimlarining ilmiy asarlarini o'rganishdi, tahlil qilishdi va ularning asarlariga sharhlar yozishdi. Bundan tashqari, ular Gurganj madrasasida talabalarga saboq berib iqtidorli yosh olimlarni, o'zlarining izdoshlarini tayyorlash va o'qitishga hissa qo'shdilar. Shuningdek, akademiyada yoshlar Beruniy astronomiyasi, Abu Nasr Forobiy matematikasi Abu Xayr Xammor kimyosi kabi fanlarni o'rganishgan[8].

Abu Rayxon Beruniyning astronomiya sohasidagi katta xizmatlari shundaki, u sayyoralarini, quyoshni va oyni o'rgangan va ularning koinotdagi ahamiyati va o'rni to'g'risida aniq xulosalar chiqargan. Evropa olimlaridan deyarli 6 asr oldin, er o'z o'qi atrofida aylanib yurganligi asoslaydi. Uning yerning kattaligi haqidagi ilmiy xulosalari ham hozirgi hisob-kitoblarga yaqin. Beruniy shuningdek, geometriya, algebra va arifmetika, trigonometriya sonlarining nazariy tushunchalarini tartib bilan tavsifladi. U geografiya bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida orollar, dengizlar, butun dunyo mamlakatlarining aniq koordinatalarini ko'rsatdi, dunyoning eng zamonaviy xaritasini tuzdi, insoniyat tarixidagi buyuk ixtirolardan biri hisoblangan globus modelini ixtiro qildi. U, yunon olimlaridan farqli o'laroq, hind va Atlantika okeanlarining birlashishini dastlab isbotladi va Xristofor Kolumbdan 500 yil oldin okean ortida bizga noma'lum bo'lgan yirik materik borligini ilmiy jihatdan bashorat qildi[9].

Xorazm Ma'mun akademiyasining yana bir ilg'or olimlaridan Abu Nasr Iroq. U matematika va astronomiya sohasidagi tadqiqotlari bilan olimlar orasida juda mashhur bo'lib, katta hurmatga sazovor bo'ldi. Olim yuqoridagi fanlar bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar muallifi hisoblanadi. Ulardan 12 ta asarini o'z shogirdi Beruniya bag'ishlagan. Uning "Al Masihiy ash-mohiy", "risola fil usturlob", va boshqa asarlari bizgacha yetib keldgan. Abu Nasr Iroq tekis va sferik trigonometriyaning asoschilaridan biridir. Uning ilmiy topilmalari hatto qurilishda ham qo'llanilgan[10].

Tibbiyotda nafaqat sharqda, balki Evropada ham tanilgan Abu Ali Ibn Sino Ma'mun akademiyasining eng mashhur olimlaridan biridir. Ibn Sino Buxoroning afshona qishlog'ida tug'ilgan. U Buxoro madrasasida taniqli olimlardan ta'lim olib musiqa, kimyo, tabiatshunoslik, astronomiya, matematika va tibbiyot sohalarida etakchi olimga aylangan. 1004 yilda u Beruniyning taklifiga binoan Gurganjga kelib Abu Nasr Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abul Xayr Xammor bilan birga Ma'mun akademiyasida faoliyat yurita boshladi. Ibn Sino turli fanlar bo'yicha 450 ga yaqin ilmiy ishlar yozgan, ularning aksariyati tibbiyotga bag'ishlangan. "Tibbiy fan kanoni" asarining dastlabki ikki jildi va olimning boshqa asarlari ushbu akademiyada yozilgan[11]. Ibn Sinoning tibbiyotga bag'ishlangan asarlari butun dunyoda va hozirgi kunda tibbiyotning durdonalari hisoblanadi. Uning qo'lyozmalarini uzoq vaqt davomida sog'liqni saqlash muassasalarida ishlatilgan. Ibn Sino 57 yoshida, 1037 yilda og'ir kasallikdan vafot etdi.

Abu Sahl Al-Masihiy (910-1011) ham taniqli olimlardan biri bo'lib astronomiya, matematika, tabiatshunoslik va falsafaga bag'ishlangan o'ndan ortiq asarlarning muallifi. Uning qalamiga mansub 8 ta asar bizgacha yetib kelgan. Olimning "tibbiyotning yuzta savoli" asarlari ensiklopedik asar sifatida unda tibbiyot nazariyasi, inson tanasi kasalliklari, ularning paydo bo'lish sabablari va ularni davolash usullari masalalari ko'rib chiqiladi. Shuning uchun olimning bu asari ibn Sino va ar-Roziy asarlari bilan bir qatorda tibbiyotda juda qimmatlidir[12].

Xorazm Ma'mun akademiyasining yetakchi olimlaridan yana biri Abu Mahmud Hamid ibn Al-Hidr Al-Xo'jandi hisoblanadi. U o'z davrining taniqli astronomi va ixtirochisi bo'lib Beruniy uni "asrning noyob hodisalari" sifatida juda

qadrlagan. Xodjandi Ray va Gurganjda ulkan rasadxonalar qurilishini boshqargan. Ushbu observatoriylar olimning shaxsiy ixtirosi bo‘lgan noyob astronomik uskunalar-sekstantlar bilan jihozlangan. Al-Xo‘jandi ushbu observatoriyalarda tadqiqotlar olib borgan va astronomiya bo‘yicha qimmatli asarlar yozgan[13]. Al-Xo‘jandiyning ilmiy merosi keyinchalik sharqda astronomiya rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Ma'lumki, Hindistonning Jatpur shahrida XVII qurilgan observatoriyalarda Xodjandi tomonidan ixtiro qilingan astronomik uskunalar-sekstantlar o‘rnatalgan. Shundan bilsa bo‘ladiki, Al-Xo‘jandi ixtirosi uzoq vaqt davomida mukammalligi bilan ajralib turardi.

Xorazm Ma'mun akademiyasi faoliyati 1017 yilgacha davom etdi[14]. Ammo bu qisqa vaqtga qaramay, akademiya butun dunyoga o‘zining bebaaho asarlari bilan dunyo ilm-fani xazinasini boyitgan buyuk entsiklopedik olimlarni etishtirb berdi. Xulosa qilib aytganda, ushbu ilmiy muassasa ilm-fan sohasida yorqin iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абдуллаев А. А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. Ташкент: Медицина. 1980. 162 с.

Абу Райхан Бируни. Избранные произведения: Т. III, Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами, 1966.

Кадыров А. А. Возникновение медицины в Средней Азии. Ташкент: Медицина. 1990. 41 с.

Кадыров А. А. История медицины Узбекистана. Ташкент: Ибн-Сина, 1994. 233 с.

Махсумов, М. Д. Хорезмская Академия Маъмуна, ее роль в развитии науки, культуры и медицины в средневековые на территории Узбекистана / М. Д. Махсумов. -Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 4 (108). — С. 652-654. — URL: <https://moluch.ru/archive/108/26197/> (дата обращения: 19.03.2024).

Сорокина Т. С. История медицины. Москва: Академия. 2008. 560 с.

Холигитова, Н. Х. Эпоха мусульманского ренессанса IX-XII веков в Центральной Азии / Н. Х. Холигитова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 9 (68). — С. 397-398. — URL: <https://moluch.ru/archive/68/11714/> (дата обращения: 19.03.2024).

MAMUNIYLAR DAVRIDA MILLIY MADANIYATNI YUKSALTIRISHGA E'TIBOR

*Yelmuratov Ikmatulla Gaynullaevish
Qoraqalpoq Davlat Universiteti
O‘zbekiston va Qoraqalpogiston
tarixi kafedrasi dotcent*

Arablar istilosidan keyin Xorazmning janubiy qismi Kat shahrida afrig‘iyalar hukmdori Abu Abdulloh Muhammad tomonidan, shimoliy qismi esa xalifalik amiri Ma’mun ibn Muhammad (995-997) tomonidan boshqariladi. Ikkala hukmdor orasida kelib chiqqan jangda Ma’mun ibn Muhammad g‘olib chiqib, butun Xorazmni o‘z qo‘l ostiga birlashtiradi hamda o‘ziga Xorazmshoh unvonini qabul qilib, poytaxtni Gurganj shahriga ko‘chiradi. Uning vorislaridan Ali ibn Ma’mun

MUNDARIJA

Nurjonov A.O. Kirish so‘zi	3
1-SHO‘BA. XORAZMSHOH MA’MUNIYLAR DAVRI SIYOSIY, IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOTINING DOLZARB MASALALARI.....	6
Matkarimova. S.M. Ikki buyuk allomaning mubohasasi va munozarasi.....	6
Mustafa Demirci. The Great Scholar of the Mamunids Palace: ‘Abu Sahl Isā b. Yahyā Al Masihi, the Teacher of Ibn Sina and Biruni, and His Undiscovered Scientific Heritage.....	9
Ashirov A.A. O‘zbek xalqining ekin-tikinchilik marosimlarida diniy va milliy qadriyatlar simbiozi.....	21
Баллиева. Р. X-XI asrlarda Xorazmning tabiiy muҳiti va shart-sharoitlari.....	26
Boboyorov G‘. Abu Rayhon Beruniyning “Osor ul-boqiya” asaridagi o‘g‘uz turklari boshqaruvchilarining unvoni “xonuvta”mi yoki “jabg‘uya”?.....	29
Boboyorov G‘. Abu Rayhon Beruniy asarlarida Kashmir tevaragidagi turkiy elatlarga tegishli bilgilar.....	32
Курбанова З.И. Отражение исламских традиций в современной семейной обрядности каракалпаков.....	34
Davlatova S.T. Ma’muniylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning ravnaqi yohud Xorazmshohlar davlatining “Oltin davri”.....	39
Masharipov Q.Y. Xorazmshoh – ma’muniylar davrida xorazmnning buyuk ipak yo‘li janubiy tarmog‘i orqali savdo aloqalari.....	45
Нуруллаева Н.К. Идея межконфессиональной толерантности при правлении маъмунидов.....	49
Abdullayev T.P. X-XV asrlarda Xorazm hunarmandchiligi yozma manbalarda.....	52
Matkarimova N.M. Ma’muniy Xorazmshohlar davrida musiqa san’atining rivoji.....	56
Turekeyev Q. J. Qoraqalpoq xalqida hayvonlar kulti bilan bog‘liq qadimiy diniy e’tiqodlar.....	61
Abdalov U.M, Abdirimov Z.E, Po‘lotov M.M. Xorazmshoh-ma’muniylar sulolasining sharqiy yevropa hududlarida kechgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlardagi o‘rni.....	68
Tadjiyeva F. J. Beruniy asarlarida turkiy xalqlar	72
Ismoilov Sh.Z. X asrda o‘rtalarida Xorazmshoh ahmadning siyosiy faoliyati va uning oqibatlari.....	74
Jumaniyazova F.J. Abu Ali Ibn Sinoning Xorazmdagi faoliyati.....	79
Bekchanov D.B. O‘razmetova R.T. Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosi.....	83
Davletov S.R. Xorazmda Ma’mun akademiyasining shakllanishi va uning jahon ilm-fani taraqqiyotida tutgan o‘rni.....	85
Raxmanova Sh.Q., Raxmanova O. A. Ma’muniy Xorazmshohlar davlatida ilm-fanning rivojlanishiga xissa qo‘shtan allomalarining ilmiy merosi.....	91

Karimov U.D. History of the water economic system of the Khorazm Oasis (X-XI centuries).....	98
Matniyozov S.S. Abu Rayhon Beruniy asarlarida tarixiy-geografik ma'lumotlar.....	100
Ismoilov Sh.Z., Allaberganov O.A. Ma'muniylar davrida xorazm shaharlarining qiyofasi.....	103
Allaberganov O.A. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi.....	107
Baxtiyarov S.I. Ma'muniy Xorazmshohlar davrida shaharlar taraqqiyoti.....	110
Matyakubov X.X., Sultanov S.M. Ma'muniy Xorazmshohlar davrida aniq fanlarning rivoji.....	112
Karimov S.O. Xorazm Ma'mun akademiyasining o'rta asrlar ilm-fan, madaniyat va tibbiy bilimlar rivojidagi o'rni.....	116
Raximberganov J.O. Afrig'iylar sulolasi shaxzodasi-Abu Nasr ibn Iroq.....	120
Bakdurdiyeva Q.Q. Ma'muniylar sulolasi davrida savdo munosabatlari.....	123
Abdrimov Z.E., Ganjayeva F.R. Xorazmshoh – Ma'muniylar sulolasining kelib chiqishi muammosi.....	126
Botirova N. Ma'muniylar davlatida harbiy soha taraqqiyotida ko'chmanchi qabilalar o'rni.....	129
Babajanova D. Xorazmshoh Ma'muniylar davri ilm-fan taraqqiyotida Abu Rayhon Beruniyning o'rni.....	133
Matvapayeva N.G'. Oila va nikohning tarixiy-demografik mohiyati (Xorazm viloyati misolida).....	137
Ozodova O'D. Ibn Sinoning Ma'mun akademiyasi faoliyatidagi o'rni.....	141
Raximbayev M.K. Analysis of problems in traditional dictionaries and advantages of electronic dictionaries.....	143
Samandarov S. Abu Mansur As-Saolibiy ma'muniylar davrining yetuk filolog allomasi.....	146
Safarov T.T. Ma'mun Akademiyasining tashkil etilishi va uning faoliyati yo'nalishlari.....	148
Vohidov Sh.H., Ergashev J.Y. Ma'mun Akademiyasining o'rta asr ilm-fan taraqqiyitidagi o'rni.....	152
Yelmuratov I.G. Mamuniylar davrida milliy madaniyatni yuksaltirishga e'tibor.....	156
Kudiyarov A.R. Kitob va uning ilm-fan taraqqiyotidagi o'rni.....	160
Кошанов Б.А. Государство Хорезмшахов-Мамунидов и предки каракалпаков.....	163
Давлетияров М.М. Кипчаки и их роль в формировании каракалпакского народа.....	166
Qalimbetov B.D. Abu Rayhon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining raisi.....	171
Navro'zov S. Buyuk Seleksioner olim akademik N.I. Vavilov tadqiqotlarida Xorazm dehqonchilik madaniyati tarixi.....	173
Paxratdinov A.Q. Qoraqalpoqlarning oila-nikoh munosabatlarida qarindosh-urug'chilik masalasi	176

Umid Bekmuhammad. Abu Nasr Ibn Iroq-ma'muniylar davrining yetuk allomasi va "Dorul hikma" dagi faoliyatining tarixiy ahamiyati.....	179
Karimov Y.A. Afsonaviy ko'hna Urganchning "qirq mulla"si.....	183
Gulmirzayeva A.H. Abu Rayhon Beruniy- buyuk serqirra olim.....	185
Elboyeva M.B. Abu Rayhan Beruni is a great scientist of the eastsenior teacher of Shahrisabz State Pedagogical Institute.....	188
Matchonov Sh.Sh. Abu Rayhon Beruniy – buyuk serqirra olim.....	191
Otajonov Sh.X. Abu Rayhon Beruniy - buyuk serqirra olim	198
Usmanova I.I. Xajiboyeva sh. Tuproqqala yodgorligi arxeologik manbalarda yoritilishi.....	201
Abdullayev B.Q. Beruniy «Tafhim» asarining Toshkentdagi qo'lyozma nusxalari.....	203
Kuranbayeva U.S. Beruniy asarlarini izlab	207
Usmanova I.I. XIX-XXI asrlar Xorazmning qadimgi va rivojlangan o'rta asr mudofaa inshootlari tarixiy adabiyotlarda yoritilish tarixi.....	209
Samanova Sh.B. Beruniyning tabiat haqidagi falsafiy qarashlari.....	213
Sulaymanov S.A. Zardushtiylikning boshqa dinlarga ta'siri.....	216
Abidova Z.Q. Abu Rayxon Beruniyning "Kitob as-saydana" asari.....	218
Allaberganova I.S. Abu Ali Ibn Sino ahloq tarbiyasi haqida.....	219
Нуруллаева Н.К. Вопросы межнационального согласия при правлении маъмунидов.....	221
Atajanova F.E. Abu Ali Ibn Sino Asarlarida sog'lom turmush tarzi qoidalarini yoritilishi.....	224
Xudayqulova N.A Abu Ali Ibn Sinoning Ma'mun akademiyasidagi ilmiy faoliyati.....	225
Sulaymanov S.A., Kayupova M.D. Qoraqalpog'istonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari.....	227
Sulaymanov S.A., Najimov K.M. Janubiy Orol bo'yli o'rta asr allomalarining ilmiy va ma'naviy merosi.....	230
Ismailov U.S. Ma'muniylar zamonda ilm-fan yuksalishi va bundagi tarixiy shart-sharoit.....	234
Raxmanova N.K. Mamuniylar davrida ijtimoiy madaniy hayotning o'ziga xos jihatlari.....	237
Ro'zmetova R. Diniy ramzlarning ma'nolari haqidagi ba'zi masalalar.....	240
Ражабова Д.Ш. Беруни учёный гениальный мыслитель средневековья.....	245
Rajabova D.Sh. Abu Rayxon Beruniyning "Mineralogiya" asarida turkiy xalqlar tarixining yoritilishi.....	250
Matyakubov Sh.S. Xorazmshoh Ma'muniylar davri ijtimoiy muhitida Abu Rayhon Beruniyning o'rni va ilmiy faoliyati.....	254
Davletov S.R. Xorazm Ma'mun Akademiyasi allomalari ilmiy merosining yoshlari ma'naviyatini shakllantirishda tutgan o'rni.....	257
Yusupov J.J. Ma'muniylar davrida ilm-fan ravnaqi.....	262
Dr. Şüküov Niyameddin Soltanoğlu. Harezmşahlar dövrü vezirin makam mahalli ve mahiyeti.....	264

Islamova Q. Ma'mun Akademiyasida faoliyat yuritgan Abu Saxl Masihiy faoliyatiga nazar.....	265
MIRZAZADE LILIYA FRIDUNOVNA- The problem of ethnonic changes of armenians, the idea and implementation of counter projects for their resettlement to the north Caucasus.....	268
X.Tangirova, Abdalov U.M., Ruslanova Sh.D. Xorazmshohlar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga oid ba'zi masalalar.....	272
Babojonov D.K. Ma'muniylar davrida qurilgan minora.....	278
Полина Владимировна Маркина- Подготовка учителей русского языка и литературы для школ республики узбекистан.....	284
Xasanov M. Xorazm madrasalari tarixi bo'yicha ba'zi mulohazalar.....	289
Tadjiyeva N.J. Xorazmda turar joylar qurilishi o'ziga xosligi.....	291
Anyozov R.B. Xorazm vohasi karvon yo'llari infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish tizimi faoliyatini tarixiy jihatdan tadqiq qilinishi.....	293
Abdullayev U.I., Matqurbanov O.O., Ro'zimboyev D.A. IX-X asrlar Xorazm ilm – fani rivojida savdo aloqalarining tutgan o'rni!.....	300
Салаев Д.Ж. Ибн Сино асарларида адолатли бошқарув ва фозил жамият асослари.....	304
Машарипова Г.К. Абу Наср Ибн Ироқнинг табиий-илмий парадигмаси...307	
Жуманиёзова М. Т. Борьба между религиозно-мистическим лечением и традиционной народной медициной в период Мамунидов.....312	
Абдириков Б.М. Буюк Салжуқийлар давлати давлати ташкида Хоразм ва унинг хукмдори Хоруннинг рўли.....	316
Babayeva-Shukurova Farahila. Kuzey Kafkasya ekonomisinde Ermeni faktörü.....	322
Babayeva-Shukurova Farahila. Этносоциал муносабатлар Абу Наср Форобий талқинида.....	326
Айтмуратова Ж.Ж. Буюк алломаларнинг жаҳон цивилизацияси ривожига кўшган ҳиссаси.....	327
Rajarov M.Q. "Afrig" atamasi kelib chiqishi xususida yangi qarashlar va yondashuvlar.....	330
Ahmedova N.F. ma'muniylar davrida tarix ilmi va tarixnavislik an'analarining davomiyligi.....	333

**MA’MUNIY XORAZMSHOHLAR DAVRIDA ILM-FAN
TARAQQIYOTI VA UNING JAHON TAMADDUNIDA
TUTGAN O’RNI**

mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2024-yil 15–16-aprel

1-qism

Muharrir: S.Ruzmetov

**Kompyuterda sahifalovchilar: O.Allaberganov, J.Raximberganov,
U.Musayev, S.Sultanov, S.Baxtiyarov**

Mazkur to ‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma ’lumotlar va me ’yoriy hujjatlar sanasining to ‘g ’rilingiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o ’zлari ma ’suldirlar.